

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Yu22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

KULTURAYEVA SARVINOZ SADRIDDIN QIZI

**VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN TAYINLANGAN
OZODLIKDAN MAHRUM QILISH JAZOSINI IJRO ETISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Kulturayeva Sarvinoz Sadridin qizi

Voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etishni takomillashtirish.....3

Култураева Сарвиноз Садриддин кизи

Совершенствование исполнения наказания в виде лишения свободы, назначенного в отношении несовершеннолетних.....27

Kulturaeva Sarvinoz Sadridin kizi

Improvement of the execution of punishment of imprisonment imposed on minors.....53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....58

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Yu22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

KULTURAYEVA SARVINOZ SADRIDDIN QIZI

**VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN TAYINLANGAN
OZODLIKDAN MAHRUM QILISH JAZOSINI IJRO ETISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Yu888 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsul.uz) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Salayev Nodirbek Saparbayevich yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	O‘razaliyev Murodbek Qoraevich yuridik fanlar doktori, professor Kushbakov Dilshat Musurmankulovich yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 3-aprel kuni soat 16:00dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36; faks: +99871 233-37-48; info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1378 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36; faks: +99871 233-37-48)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 20-mart kuni tarqatildi.
(2025-yil 20-martdagi 44-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A.Otajonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

I.B.Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, yuridik fanlar doktori (DSc),
professor

D.B.Bazarova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanayotgan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazolar soni ortmoqda. Xususan, BMT ma'lumotlariga asosan, bugungi kunda dunyo bo'ylab har 100 ming nafar boladan 28 nafari ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tamoqda. Shimoliy Amerikada voyaga yetmaganlarni ozodlikdan mahrum qilish eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, har 100 ming nafar boladan 72 nafari mazkur jazoni o'tamoqda¹. Umumiy hisobda esa, dunyoda har yili 1 milliondan ortiq voyaga yetmaganlar hibsga olinadi². Bunga xalqaro tuzilmalarning voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olishga kompleks yondashmasligi, penitensiar muassasalarda voyaga yetmaganlarning yoshi, fiziologik va psixologik holatiga mos jazoni o'tash sharoitlari yaratilmaganligi sabab bo'lmoqda. Bu esa, voyaga yetmaganlarning jinoiy faoliyatdagi roli va ishtirokini har jihatdan kamaytirish, ularga axloq tuzatish vositalarini qo'llash samaradorligini oshirish, jazoni ijro etish sohasidagi qonun hujjatlarini isloh etishning zamonaviy xalqaro standartlari va umumiy yo'nalishlarini ishlab chiqish, voyaga yetmagan mahkumlar saqlanadigan penitensiar muassasalar faoliyatini isloh qilish lozimligini taqozo etadi.

Jahonda voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish muammolarini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olishning eng muhim choralari sifatida voyaga yetmaganlar tomonidan ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash sharoitlarini yaxshilash, ularga axloq tuzatishning samarali usullarini qo'llash, voyaga yetmagan mahkumlar huquqlari doirasini kengaytirish, ijtimoiy-psixologik adaptatsiya (moslashuv) mexanizmlarini ishlab chiqish yuzasidan ma'lum natijalarga erishilgan. Shunga qaramasdan, dunyo miqyosida bugungi zamonaviy sharoitlarni inobatga olgan holda, voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etishning nazariy, amaliy va huquqiy jihatlarini kompleks tarzda o'rganuvchi tadqiqotlarning ko'lamini kengaytirish, ushbu sohadagi muammolarni aniqlash hamda ularga ilmiy asoslangan yechimlar berishga qaratilgan tadqiqotlar olib borish zaruriyatini ko'rsatadi.

Respublikamizda voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etishning huquqiy asoslarini yaratish borasida muayyan natijalarga erishilgan. Xususan, voyaga yetmaganlar ozodlikdan mahrum qilish jazosini alohida jazoni ijro etish muassasasi – tarbiya koloniyasida o'tashi, voyaga yetmagan mahkumlarning ota-onasi va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilan uchrashuvlar cheklanmagan miqdorda berilishining huquqiy asoslari yaratilgan. Shuningdek, 2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasida jazolarni ijro etish sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalardan biri sifatida mahkumlar, birinchi navbatda, voyaga yetmagan mahkumlar va yoshlarning ta'lim

¹ <https://data.unicef.org/topic/child-protection/justice-for-children/>

² <https://data.unicef.org/resources/children-in-detention-report/>

olishi, kasbiy tayyorgarligini tashkil etish hamda bandligini ta'minlash tizimini rivojlantirish, ularni ijtimoiy moslashuvini ta'minlash³ vazifasi belgilangan. Ushbu vazifalar voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etishning samarali usullarini ishlab chiqish va voyaga yetmagan mahkumlarni ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlashga qaratilgan dasturlarni tadqiq etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrdagi O'RQ-263-son "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida", 2024-yil 29-fevraldagi O'RQ-917-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to'g'risida", 2024-yil 7-avgustdagi O'RQ-938-son "Probatsiya to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi PQ-4006-son "Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston–2030 strategiyasi to'g'risida"gi farmon va qarorlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2013-yil 29-iyuldagi buyrug'i bilan tasdiqlangan (ro'yxat raqami 2495-son) "Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari" hamda sohaga doir boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada ushbu tadqiqot ishi xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish, voyaga yetmagan mahkumlar huquqiy holatining ayrim masalalari R.A.Xatamov, N.S.Salayev, G.U. Axmedova, A.A. Shodiyev, A.S. Tursunov, S.S.Niyozova, Sh.D. Xaydarov, M.Sh.Yuldashev, I.T.Turg'unov, Q.B.Qodirov, U.Sh.Xolikulov, D.A. Tadjibayeva, A.A.Saydulloyev va boshqalarning ilmiy ishlarida muayyan darajada o'rganilgan.

Jumladan, N.S.Salayev penitensiar tizimning profilaktik funksiyasi samaradorligini oshirish masalalarini, G.U.Axmedova jazoni ijro etish muassasalari qoshidagi bolalar uylarida bolasi bor ayollarning ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash tartibi va shartlarini, A.A. Shodiyev, A.S. Tursunov, I.T.Turg'unovlar jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlar huquqlarining ta'minlashning o'ziga xos jihatlarini, M.Sh.Yuldashev tarbiya koloniyasida jazoni ijro etish rejimining alohida jihatlarini, D.A. Tadjibayeva penitensiar

³ 2019–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.11.2018-y., 07/18/4006/2166-son, 13.12.2018-y., 06/18/5597/2300-son.

muassasalarda mahkumlar jinoyatchiligi profilaktika mexanizmini takomillashtirish xususiyatlarini o'rganish.

MDH mamlakatlari olimlaridan N.I.Vishnevskaya, S.B.Ryabix, A.A.Ashin, L.I.Belyayeva, A.V.Gladkova, V.M.Kolesnikov, M.S.Ribak, V.V.Nevskiyar tomonidan voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish tartibi va shartlari, voyaga yetmaganlarga nisbatan axloq tuzatish vositalarini qo'llash masalalari o'rganilgan.

Xorijiy mamlakatlar olimlari Charles W. Thomas, D.Mak-Klellan, C.Haney, A.Shames, A. Gerdlarning⁴ ilmiy ishlarida ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi, shuningdek ushbu sohadagi xalqaro standartlar o'rganilgan.

Respublikamizda voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etishning nazariy va amaliy jihatlari kompleks tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi va uni qo'llash amaliyotini takomillashtirish muammolari" mavzusidagi ilmiy tadqiqotlarining ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etishning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish hamda uni samarali ijro etishga oid jinoyat-ijroiya qonunchilik normalarini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish tushunchasi, maqsadi va vazifalarini tahlil qilish;

ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan mahkumlarning huquqiy holatini tahlil qilish va voyaga yetmagan mahkumlarning huquqiy holatini yaxshilashga qaratilgan takliflar ishlab chiqish;

ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan voyaga yetmagan shaxslarning kriminologik xususiyatlarini tadqiq etish;

tarbiya koloniyalarida jazoni ijro etish rejimi va jazoni o'tashning alohida tartibi hamda shartlarini o'rganish;

voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan axloq tuzatish vositalarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va ularning samaradorligini oshirish;

tarbiya koloniyalarida mahkumlarni ozodlikka tayyorlash va ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqan voyaga yetmagan shaxslarni post-penitensiar adaptatsiyasini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish;

xalqaro standartlarda belgilangan voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan normalar va ularning ahamiyatini yoritish;

⁴ Mazkur olimlar asarlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

ilg'or xorijiy mamlakatlar qonunchilik tizimida voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish holatini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish hamda ijobiy jihatlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish imkoniyatlarini aniqlash;

voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etishga oid qonunchilik hujjatlari normalarini takomillashtirish, huquqni qo'llash amaliyotini yaxshilashga qaratilgan taklif va tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish tartibiga oid ijtimoiy munosabatlar tizimi olingan.

Tadqiqotning predmetini voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi jinoyat-ijroiya qonunchilik hujjatlari, bu boradagi normativ-huquqiy hujjatlar, qonunni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi, yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda tarixiy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy (analiz va sintez), sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, statistik ma'lumotlar tahlili, huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tarbiya koloniyalarida mahkumlarning murojaat qilish huquqidan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytirish lozimligi va Bola huquqlari bo'yicha vakil (Bolalar ombudsmani) tarbiya koloniyalarida parlament nazoratini amalga oshirishga vakolatli davlat organi hisoblanishi sababli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakiliga (Bolalar ombudsmaniga) murojaatlar qutisi o'rnatilishi lozimligi asoslangan;

jazo o'tayotgan mahkumlarning insoniy muomalada bo'lish huquqini ta'minlanishi va jazoni ijro etish muassasalarida qiynoqlarni oldini olish lozimligi sababli mahkumlarga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoxud jazo turlarining qo'llanilishiga yo'l qo'yilmasligi lozimligi asoslangan;

Bola huquqlari bo'yicha vakil (Bolalar ombudsmani) tarbiya koloniyalarida parlament nazoratini samarali amalga oshirishga vakolatli davlat boshqaruv organi bo'lganligi sababli Bola huquqlari bo'yicha vakil (Bolalar ombudsmani)ning tarbiya koloniyalariga muntazam kirib turish orqali bolaga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llashni oldini olish bo'yicha choralar ko'rishi lozimligi asoslangan;

probatsiya nazoratidagi voyaga yetmagan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish ularning o'ziga xos individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda amalga oshirilishi lozimligi sababli probatsiya nazoratidagi voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan ijtimoiy moslashtirish choralari qo'llanilganda ularning yoshi, o'ziga xos individual xususiyatlari hisobga olingan holda, voyaga yetmagan shaxslar oila

a'zolarining yoki qonuniy vakillarining, shuningdek pedagog, psixolog, vasiylik va homiylik organi vakillarini ijtimoiy moslashtirishda ishtirok etishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi zarurligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

JIKning 9-moddasida belgilangan mahkumlarning asosiy huquqlari doirasiga ta'lim olish huquqini kiritish zarurati asoslangan;

JIKga "Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llashning barvaqt oldini olish bo'yicha nazorat" deb nomlangan 17¹-moddani kiritish zarurati asoslangan;

JIKning 100-moddasi uchinchi qismiga tarbiya koloniyasida jazo o'tayotgan mahkumlar masofaviy shaklda oliy ta'lim olishlari mumkinligi to'g'risidagi normani kiritish zarurati asoslangan;

JIKning 127-moddasi 2-qismida belgilangan hibsonaga kiritib qo'yilgan voyaga yetmagan mahkumning sayr qilish muddatini sutkasiga to'rt soat qilib belgilash lozimligi asoslangan;

JIKning 128-moddasi 1-qismiga jazoni o'tash davrida o'n sakkiz yoshga to'lgan mahkumlar sog'lig'ida jiddiy muammosi bo'lsa, ta'lim muassasasida o'qishni davom ettirishi lozim bo'lsa, rivojlanishdan orqada qolgan bo'lsa, nogironligi mavjud bo'lsa, jazoni o'tash muddati tugashiga 1 yildam kam qolgan bo'lsa hamda ijobiy tavsiflangan taqdirda yigirma bir yoshga to'lgunga qadar tarbiya koloniyasida qoldirilishi mumkinligi to'g'risidagi normani kiritish zarurati asoslangan;

JIKning 128-moddasi 2-qismiga mahkumlarni tarbiya koloniyasida qoldirish muassasa boshlig'i, prokuror, Bola huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman), mahkumning ota-onasi yoki advokati iltimosnomasiga asosan sud tomonidan amalga oshirilishi lozimligi to'g'risidagi normani kiritish zarurati asoslangan;

JIKga "Tarbiya koloniyalarida mahkumlarni ozod qilishga tayyorlash" deb nomlangan 129¹-moddani kiritish zarurati asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonun normalari, 15 ga yaqin xorijiy davlatlarning qonunchiligi asosida hamda sotsiologik tadqiqotlar, anketa so'rovi natijalari (Toshkent viloyatidagi 24-son tarbiya koloniyasida jazo o'tayotgan 100 dan ortiq mahkumlar o'rtasida o'tkazilgan) asosida o'rganilgan, statistik ma'lumotlar tahlil qilingan, umumlashtirilgan va ularning natijalari belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hamda olingan xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uning asosida ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligi, huquqni qo'llash amaliyotida, voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish bilan bog'liq muammolarni hal etishda, jinoyat-ijroiya huquqi fani va nazariyasini yanada boyitishda, yangi ilmiy tadqiqotlarni olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, undagi xulosa va takliflardan voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish

jazosini ijro etish faoliyatida, jazoni ijro etish muassasalarida faoliyat olib boruvchi kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashda, yuridik oliy ta'lim muassasalarida "Jinoyat-ijroiya huquqi" modulining ma'ruza, seminar va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini o'tishda, jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan qonun loyihalarini ishlab chiqishda hamda sud-huquq tizimini yanada isloh qilish jarayonida keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etishga doir masalalarni tadqiq etishning ilmiy natijalari asosida:

tarbiya koloniyalarida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakiliga (Bolalar ombudsmaniga) murojaatlar qutisi o'rnatilishi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-apreldagi O'RQ-409-I-son Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 79²-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 19-dekabrda 3/08-25-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi voyaga yetmagan mahkumlarning Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakiliga (Bolalar ombudsmaniga) bevosita murojaat qilish huquqi ta'minlashiga xizmat qiladi;

mahkumlarga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoxud jazo turlarining qo'llanilishiga yo'l qo'yilmasligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-apreldagi O'RQ-409-I-son Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 8-moddasini (mahkumlar huquqiy holatining asoslari) ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2024-yil 29-apreldagi 04/2-10/1592-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi jazo o'tayotgan mahkumlarning insoniy muomalada bo'lish huquqining ta'minlanishiga hamda mahkumlarga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoxud jazo turlarining qo'llanilishi holatlarini oldini olishga xizmat qiladi;

Bola huquqlari bo'yicha vakil (Bolalar ombudsmani) tarbiya koloniyalariga muntazam kirib turish orqali bolaga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llashni oldini olish bo'yicha choralar ko'rishi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 29-fevraldagi O'RQ-917-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to'g'risida"gi Qonunining 20-moddasini (Bola huquqlari bo'yicha vakilning bolaga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llashning oldini olishga doir faoliyati) ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2024-yil 13-maydagi 01-07/251-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi tarbiya koloniyalarida parlament nazoratini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi;

Probatsiya nazoratidagi voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan ijtimoiy moslashtirish choralari qo'llanilganda ularning yoshi, o'ziga xos individual xususiyatlari hisobga olingan holda, voyaga yetmagan shaxslar oila a'zolarining yoki qonuniy vakillarining, shuningdek pedagog, psixolog, vasiylik va homiylik organi vakillarini ijtimoiy moslashtirishda ishtirok etishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustdagi O'RQ-938-son "Probatsiya to'g'risida"gi Qonunining 57-moddasini (probatsiya nazoratidagi voyaga yetmagan shaxslar bilan ish olib borishning o'ziga xos xususiyatlari) ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining 2024-yil 20-sentabrdagi 04/25-10/3496-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi probatsiya nazoratidagi voyaga yetmagan shaxslarni ijtimoiy moslashtirishda ularning o'ziga xos individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, 7 ta ilmiy maqola, shundan 2 tasi xorijiy nashrlarda va 4 ta ilmiy tezislarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Mazkur dissertatsiya tarkibi kirish, to'qqiz paragrafni o'z ichiga olgan uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat. Dissertatsiya ishining hajmi 141 betdan (foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashqari) iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (dissertatsiya annotatsiyasi) qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish tushunchasi va jazoni o'tayotgan voyaga yetmaganlarning huquqiy holati**" deb nomlanib, ushbu bobda voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish tushunchasi, maqsadi va vazifalari, ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan voyaga yetmagan mahkumlarning huquqiy holati, tarbiya koloniyasida jazo o'tayotgan voyaga yetmagan shaxslarning kriminologik xususiyatlari tahlil qilingan.

Dissertantning fikricha, voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etishning o'ziga xos xususiyatlari mazkur jazo voyaga yetmaganlar uchun eng oxirgi chora sifatida qo'llanilishi, jazoni o'tash alohida jazoni ijro etish muassasasida amalga oshirilishi, jazoni ijro etish rejimi, o'tash tartibi va shartlari voyaga yetgan mahkumlarning jazoni o'tash tartibidan farq qilishi, jazoni ijro etishda yoshga mos alohida yondashuvning mavjudligi, asosiy e'tibor rehabilitatsiya, ta'lim-tarbiya va kasbiy tayyorgarlik, psixologik yordam va ijtimoiy integratsiyaga qaratilganligi, oila bilan aloqalarning doimiy amalga oshirilishi kabi alohida jihatlarni qamrab oladi.

Tadqiqotchi tomonidan jahonda voyaga yetmaganlar uchun alohida jazoni ijro etish muassasalari tashkil etilishining rivojlanish tarixi quyidagi bosqichlarga bo'lingan:

1. *Qadimgi antik davrdan XVIII asrgacha* – voyaga yetmaganlar o'z ota-onalari bilan birga jazolangan, voyaga yetganlar bilan bitta muassasalarda saqlangan, voyaga yetganlar uchun qo'llaniladigan jinoyat sudlov tizimi asosida jazolangan.

2. *XVIII asrdan XIX asr o'rtalarigacha* – voyaga yetmaganlar uchun 1825-yilda Nyu-York shahrida dastlabki alohida jazoni ijro etish muassasasi sifatida voyaga yetmagan huquqbuzarlarni rehabilitatsiya qilish uchun "Boshpana uyi" tashkil etilgan. Biroq, voyaga yetmaganlarni sodir etilgan qilmishining ijtimoiy xavfliligiga qarab voyaga yetganlar saqlanadigan muassasalarga joylashtirish tartibi davom etgan.

3. *XIX asr o'rtalaridan XX asr o'rtalarigacha* – ko'plab davlatlarda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyat ishlarini ko'rish uchun alohida sud tashkil etilgan va voyaga yetmaganlarni alohida axloq tuzatish muassasalarida saqlash lozimligi haqida g'oyalar ilgari surila boshlangan.

4. *XX asr o'rtalaridan hozirgi davrga qadar* – BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan konvensiyalar ishlab chiqilishi natijasida voyaga yetmagan huquqbuzarlarni institutsionalizatsiya qilish, ularni voyaga yetgan jinoyatchilardan ajratish, voyaga yetganlar uchun mo'ljallangan axloq tuzatish muassasalarida jazo o'tash tartibini bekor qilish tartib va qoidalari ishlab chiqilgan. Ko'plab davlatlarda voyaga yetmaganlar uchun alohida jazoni ijro etish muassasalari tashkil etilgan.

Fiziologik va psixologik jihatdan hali to'liq darajada shakllanmaganlik, mazkur toifadagi shaxslarning o'z huquq va manfaatlarini himoya qila olmasligi o'z navbatida, voyaga yetmagan shaxslarni alohida huquqiy himoya qilish, huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash va jazoni o'tash jarayonida ularga axloq tuzatishning samarali vositalarini qo'llashni talab qiladi.

Voyaga yetmaganlar uchun jazoni ijro etish jarayoni ancha murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, mazkur jarayonni amalga oshirish ijtimoiy, psixologik va ta'limiy jihatlarni hisobga olishni talab qiladi. Bu yondashuv ularning kelajakda muvaffaqiyatli jamiyatga qayta moslashishlariga yordam beradi. Ushbu holatlarni e'tiborga olib, qonun chiqaruvchi voyaga yetgan shaxslar uchun belgilangan tartib va qoidalarni voyaga yetmaganlar uchun ham qo'llash o'rinsiz deb hisoblaydi. Shuning uchun ham mazkur toifadagi shaxslarga jinoyat qonunchiligida alohida

maxsus javobgarlikning belgilanganligi ijtimoiy jihatdan ham, odillik va insonparvarlik jihatdan ham o‘rinlidir.

Tahlillar natijasida voyaga yetmaganlar uchun bugungi zamonaviy jazoni ijro etish muassasasi oldida turgan asosiy vazifa psixologik, pedagogik va reabilitatsiya tadbirlarini tashkil etishdan iborat bo‘lishi, mazkur tadbirlar ularning nafaqat yoshi, balki individual (psixologik, fiziologik, jinoiy-huquqiy) xususiyatlarini ham hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozimligi haqida xulosaga kelingan.

Shuningdek, jazoni ijro etish jarayonida voyaga yetmagan mahkumlar bilan ijtimoiy, psixologik va tarbiyaviy ishlarni olib borishda individual ta‘sir ko‘rsatish shakllarini ko‘proq qo‘llash, shu bilan birga ushbu ishlarni jamoatchilik bilan yanada kengroq hamkorlik asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqligi ta‘kidlangan. Bu esa, shubhasiz penitensiar tizimda xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasi va xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish orqali voyaga yetmaganlarga nisbatan jazoni ijro etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishning obyektiv zarurligidan dalolat berishi, bunda asosiy maqsad sifatida voyaga yetmagan mahkumlarni axloqan tuzatish, jazo o‘tab chiqqanlaridan so‘ng qayta ijtimoiylashuvi va reintegratsiyalashuviga yordam berishga qaratilgan jazoni ijro etishning yaxlit va samarali tizimini tashkil etishdan iborat bo‘lishi lozimligi haqida xulosa qilingan.

Olib borilgan tadqiqot asosida bir qator olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari asosida muallif tomonidan voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish tushunchasiga quyidagi mualliflik ta‘rifi ishlab chiqilgan: *“Voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish mazkur jazoni ijro etish jarayoni va tamoyillari, tartibi va shartlarini, jazoni ijro etish rejimini, jazo o‘tayotgan voyaga yetmagan shaxslarni tarbiyalash maqsadida qo‘llaniladigan usul va vositalarni, tarbiya koloniyalari faoliyati, mahkumlarni axloqan tuzatishda davlat hokimiyati va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, korxonalar, muassasa, tashkilotlarning, jamoat birlashmalari va fuqarolarning ishtirokini o‘z ichiga oluvchi faoliyatdir”*.

Tadqiqotchi ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tayotgan voyaga yetmagan mahkumlarning huquq va majburiyatlari o‘z ichiga mahkumlar uchun xalqaro standartlar va normalarda belgilangan mahkumlar bilan muomila qilish qoidalaridan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari, amaldagi jinoyat-ijroiya qonunchiligi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan, shaxsga nisbatan tayinlangan jazoni ijro etish bilan bog‘liq bo‘lgan mahkumlarning maxsus huquq hamda majburiyatlarini qamrab olishini ta‘kidlagan.

Tarbiya koloniyalarida jazo o‘tayotgan voyaga yetmagan mahkumlarning huquqiy holati umumiy qoidalar bilan bir qatorda, ushbu muassasada jazoni o‘tash tartibi va shartlariga muvofiq maxsus normalar asosida belgilanadi. Voyaga yetmagan mahkumlarning umumkonstitutsiyaviy huquqlarini muayyan bir tarzda cheklash ularning xatti-harakatlariga bog‘liq bo‘lmasdan, balki bunday cheklashlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri qonunlarda aks ettiriladi. Biroq, jazoni ijro etishni amalga oshiruvchi organ tomonidan mahkumlarning maxsus huquqlarining cheklanishi

yoki mahrum etilishi imkoniyati mahkumlarning xulq-atvori (intizmoiy jazoga tortilganligi), xatti-harakatlariga (mehnat normalarini bajarmaganligi) va boshqa holatlar (karantin, favqulodda holatlar, tabiiy ofat, epidemiya kabi) bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Muallif tomonidan olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari asosida *voyaga yetmagan mahkumlarning huquqiy holati deganda voyaga yetmagan mahkumlarning ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tash davrida ega bo‘ladigan xalqaro, konstitutsiyaviy, fuqarolik va maxsus huquqlari hamda majburiyatlarining yig‘indisi* ekanligi haqida xulosaga kelingan.

Tadqiqotchi tomonidan amaldagi O‘zbekiston Respublikasi JIKda jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarning umumiy o‘rta ta‘limini tashkil etish (100-modda), o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi berish va mahkumlarni ishlab chiqarishda kasbga o‘rgatish (101-modda) to‘g‘risidagi normalar mavjudligi, biroq, ta‘lim olish huquqi JIKning 9-moddasida belgilangan mahkumlarning asosiy huquqlari doirasiga kiritilmaganligi ta‘kidlangan. Bundan tashqari, bugungi kunda jazoni ijro etish muassasalarida voyaga yetmagan mahkumlarning oliy ta‘lim olishi uchun yetarli sharoitlar yaratish zarurati mavjudligi, chunki, O‘zbekiston Respublikasi JIKning 100-moddasi 3-qismida faqatgina manzil-koloniyada jazo o‘tayotgan mahkumlarning oliy ta‘lim olish huquqi nazarda tutilganligi haqida fikr bildirilgan.

Xalqaro standartlar, shuningdek Rossiya, Ukraina, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Norvegiya, Finlandiya, Shvetsariya kabi xorijiy davlatlar tajribasi tahlil etilib, tadqiqotchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi JIKning 9-moddasida belgilangan mahkumlarning asosiy huquqlari doirasiga ta‘lim olish huquqini kiritish lozimligi taklif etilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta‘lim mahkumlar orasida “relapse” xavfini (oldingi holatga qaytmoq) sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

Shuningdek, dissertant tomonidan O‘zbekiston Respublikasi JIKning 100-moddasi uchinchi qismiga manzil koloniyalar bilan bir qatorda *tarbiya koloniyalarida jazo o‘tayotgan mahkumlar ham masofaviy shaklda oliy ta‘lim olishlari* mumkinligi haqida qoidani kiritish lozimligi taklif etilgan, ushbu normaning belgilanishi mahkumlarning oliy ta‘lim olishini qonun darajasida belgilanishiga xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot doirasida 65 dan ortiq davlatlarda milliy tashkilotlar tomonidan jazoni ijro etish muassasalarida qiynoqlarni oldini olish bo‘yicha alohida nazorat amalga oshirilishi aniqlangan. Muallif tomonidan BMTning “Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llashga qarshi Konvensiyasi Fakultativ protokoli” (2002-yil 18-dekabr) talablari hamda BMTning Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi tomonidan O‘zbekistonning beshinchi davriy ma‘ruzasini ko‘rib chiqish natijalari yuzasidan qabul qilingan tavsiyalari e‘tiborga olinib, O‘zbekiston Respublikasi JIKga *Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llashning barvaqt oldini olish bo‘yicha alohida nazorat tartibini belgilovchi 17¹-moddani* kiritish taklif etilgan.

Dissertant tomonidan Respublikamizda yagona tarbiya koloniyasi hisoblangan Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi 24-son tarbiya koloniyasida jazo o'tayotgan mahkumlar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalari tahlil qilinib, voyaga yetmagan mahkumlarning kriminologik xususiyatlari o'rganilgan.

24-son tarbiya koloniyasida 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan vaqtda jinoyat sodir etgan, sud tomonidan ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan voyaga yetmaganlar jazoni o'taydi. Bugungi kunda mazkur muassasada faqat og'il bolalar saqlanadi. Qiz bolalar esa Toshkent viloyati Zangiota tumanida joylashgan 21-son ayollar koloniyasida jazo o'taydi.

Muallifning fikricha, xalqaro standartlar talablari voyaga yetmaganlarni voyaga yetganlar saqlanadigan muassasalarda jazo o'tashi mumkin emasligini nazarda tutadi. Qiz bola voyaga yetmagan mahkumalar 21-son ayollar koloniyasida alohida ajratilgan uchastkalarda ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tasalarda, biroq xalqaro qonun hujjatlari bunday amaliyotdan imkon qadar foydalanmaslikni tavsiya etadi. Ammo, bugungi kunda voyaga yetmagan qiz bola mahkumlar soni juda ham kamligi, shuningdek alohida jazoni ijro etish muassasasini tashkil etish davlat tomonidan katta moliyaviy resurslarni jalb etishni talab etishi, bunda jazoni ijro etish koloniyasini moddiy texnik-bazasini shakllantirish va malakali kadrlar masalalari muayyan muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligi sababli qiz bola voyaga yetmagan mahkumlar uchun alohida jazoni ijro etish muassasasini tashkil etish muhokamali masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababdan, sudlar tomonidan imkon qadar qiz bola voyaga yetmagan mahkumlarga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga muqobil bo'lgan jazolarni tayinlashga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Tadqiqotchining ta'kidlashicha, bugungi kunda tarbiya koloniyalarida ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan mahkumlarning asosiy qismi 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan (65,7 foiz), birinchi marotaba sudlangan (76,9 foiz) voyaga yetmaganlardir. Jazo o'tayotgan mahkumlarning eng ko'p qismi O'zbekiston Respublikasi JKning 118-moddasi (22,4 foiz) va 169-moddasi (18,9 foiz)da nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganligi uchun jazo o'tamoqda. Mahkumlarning itimoiy kelib chiqishi jihatidan 52 foizi – ishchi, 28 foizi – ishsiz, 20 foizi – ziyoli oiladan, ularning har ikkitadan bittasi (49,7 foiz) Samarqand, Toshkent va Farg'ona viloyatlari hisobiga to'g'ri keladi.

Dissertant tomonidan tarbiya koloniyasida jazo o'tayotgan voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etishning asosiy sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlar sifatida qadriyatlar va hayotiy rejalarning buzilganligi (87 foiz), spirtli ichimlik, giyohvandlik va psixotrop moddalarni muntazam iste'mol qilish (73 foiz), jabrlanuvchilarning xulq-atvori va turmush tarzi jinoyat sodir etilishiga sharoit yaratishi (72 foiz) ekanligi qayd etilgan, shuningdek jinoyatlarning aksariyati moddiy manfaat olish kabi psixologik motiv asosida sodir etilganligi haqida xulosaga kelingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Tarbiya koloniyalarida ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tashning nazariy va amaliy jihatlari”** deb nomlanib, ushbu bobda voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash rejimi, jazosini o'tash tartibi va shartlari, tarbiya

koloniyalarida mahkumlarga axloq tuzatish vositalarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari, tarbiya koloniyalarida mahkumlarni ozodlikka tayyorlash masalalari tahlil etilgan.

Tadqiqotchining fikricha, jazoni ijro etishda rejim jazoni ijro etish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarning barcha subyektlari va ishtirokchilarining xatti-harakat qoidalarini, ularning huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Rejim normalari mahkumlarga axloq tuzatish choralari qo'llash, shuningdek mahkumlar va boshqa shaxslar tomonidan jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Dissertant tomonidan tarbiya koloniyalarida jazoni ijro etish va o'tash rejimidan ko'zlangan maqsadga *tarbiyaviy (ta'lim), tartibga solish, ta'minlash* hamda *huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish funksiyalarini amalga oshirish orqali* erishish mumkinligi, shuningdek, tarbiya koloniyalarida belgilangan rejimning asosiy xususiyati muassasada rejim talablari voyaga yetmagan mahkumning yoshi, jinsi, sog'lig'i holati, rivojlanish darajasi, xulq-atvori, jinoyat sodir etishdagi psixologik holatlari, mahkum shaxsiga xos individual xususiyatlarni alohida e'tiborga olgan holda belgilanishi lozimligi to'g'risida fikr bildirilgan.

Ishda *tarbiya koloniyalarida jazoni o'tash rejimining huquqiy vositalarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin* degan xulosaga kelingan:

mahkumlarning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi qoidalar;

kun tartibini belgilaydigan qoidalar;

mahkumlarga berilgan huquqlardan foydalanishni va ularga yuklangan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlaydigan qoidalar;

mahkumlarga nisbatan axloq tuzatish vositalaridan foydalanishni belgilaydigan qoidalar;

mahkumlarning ijtimoiy himoyasini ta'minlaydigan qoidalar.

Tarbiya koloniyalari ilk bor mamlakatimiz hududida 1921-yil 29-may kuni Turkiston ASSR Adliya Xalq komissarligi tomonidan "Voyaga yetmagan ozodlikdan mahrum etilganlar uchun mo'ljallangan Toshkent mehnat uyi to'g'risida"gi Nizom asosida tashkil etilgan.

Dissertatsiyada tarbiya koloniyalarida jazoni o'tash tartibi boshqa turdagi jazoni ijro etish muassasalaridagi saqlash sharoitlaridan voyaga yetmagan mahkumlarning iste'moli uchun oziq-ovqat hamda birlamchi ahamiyatga ega bo'lgan narsalarni sotib olish, uchrashuvlar, telefon orqali so'zlashuvlar olish, posilka, banderol, yo'qlov hamda pul jo'natmalari olish va yuborish, qo'llaniladigan rag'batlantirish hamda intizomiy jazo choralari, mahkumlarga axloq tuzatish vositalarini qo'llash masalalarida alohida o'ziga xos jihatlarga ega ekanligi ta'kidlangan.

Dissertant tadqiqoti doirasida mamlakatimizda voyaga yetmaganlar saqlanadigan muassasada jazo o'tayotgan mahkumlar sodir etgan jinoyatining og'ir yengilligiga qarab alohida saqlanishi va joylashtirilishi, shaxsiy va sog'liqqa qarshi jinoyatlar uchun ayblanuvchilar iqtisodiyot sohasida jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlardan alohida saqlanishi, muassasada hattoki, nogiron voyaga yetmagan

mahkumlar uchun ham alohida sharoitlar yaratilganligiga guvoh bo'lganligini ta'kidlagan.

Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan amaldagi O'zbekiston Respublikasi JIKning 128-moddasida ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan o'n sakkiz yoshga to'lgan mahkumlar, odatda, yigirma bir yoshga to'lgunga qadar, tarbiya koloniyalarida qoldirilishi, mahkumlarni tarbiya koloniyalarida qoldirish esa, muassasa boshlig'ining prokuror tomonidan tasdiqlangan qarori bilan amalga oshirilishi belgilanganligi, biroq, ushbu normada mahkumni tarbiya koloniyasida qoldirish masalasi qaysi toifadagi mahkumlarga nisbatan qo'llanilishi nazarda tutilmaganligi ta'kidlangan.

Bu borada Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Qozog'iston va Qirg'iziston kabi xorijiy davlatlarning tajribasi tahlil etilib, muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi JIKda mahkumning tarbiya koloniyasida 21 yoshga to'lgunga qadar qoldirilishi uchun mezon sifatida mahkumning ijobiy tavsifga ega ekanligi belgilanganligi, "ijobiy tavsifga ega" mahkumlar tushunchasi esa huquqni qo'llash amaliyotida turlicha sharhlanishi mumkinligiga e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, muallif tomonidan mahkumni tarbiya koloniyasida qoldirish masalasini hal etish faqatgina muassasa boshlig'i yoki prokurorga bog'liq ekanligi huquqni qo'llash amaliyotida turli korrupsiyaviy xavflarni keltirib chiqarishi mumkinligi ta'kidlangan. Chunki, mahkum ijobiy tavsiflanmasada, shuningdek tarbiya koloniyasida qoldirish uchun aniq mezonlarga javob bermasada, uning ota-onasi yoki qonuniy vakillari tomonidan muassasa boshlig'iga farzandini umumiy tartibli koloniyaga o'tkizmaslik uchun turli xil tarzida "iltimos qilish" holatlari yuz berishi ehtimoldan holi emasligi va bunday holatlarni oldini olish maqsadida ham ushbu masala mustaqil organ sifatida sud tomonidan ko'rib chiqilishi lozimligi qayd etilgan.

Dissertant tomonidan O'zbekiston Respublikasi JIKning 128-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etilgan:

Jazoni o'tash davrida o'n sakkiz yoshga to'lgan mahkumlar sog'lig'ida jiddiy muammosi bo'lsa, ta'lim muassasasida o'qishni davom ettirishi lozim bo'lsa, rivojlanishdan orqada qolgan bo'lsa, nogironligi mavjud bo'lsa, jazoni o'tash muddati tugashiga 1 yildan kam muddat qolgan bo'lsa hamda ijobiy tavsiflangan taqdirda yigirma bir yoshga to'lgunga qadar tarbiya koloniyasida qoldirilishi mumkin.

Mahkumlarni tarbiya koloniyalarida qoldirish muassasa boshlig'i, prokuror, Bola huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman), mahkumning ota-onasi yoki advokati iltimosnomasiga asosan sud tomonidan amalga oshiriladi.

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, amaldagi O'zbekiston Respublikasi JIKning 127-moddasi 2-qismida tarbiya koloniyasining hibsxonasiga kiritib qo'yilgan mahkumlarning sayr qilish muddati sutkasiga ikki soat qilib belgilangan. 1990-yil 14-dekabrda "Ozodlikdan mahrum etilgan voyaga yetmaganlarni himoya qilish to'g'risida"gi BMT qoidalari normalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, intizomiy jazoga tortilgan voyaga yetmagan mahkumlarning toza havodan nafas olish, xususan sayr qilish imkoniyati muassasa tomonidan qattiq cheklanishi maqsadga muvofiq emas.

Shuningdek muallif BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi tomonidan O'zbekistonning beshinchi davriy ma'ruzasini ko'rib chiqish natijalari yuzasidan qabul qilingan tavsiyalarni e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasi JIKning 127-moddasi 2-qismida belgilangan *hibsxonaga kiritib qo'yilgan voyaga yetmagan mahkumning sayr qilish muddatini sutkasiga to'rt soat qilib belgilash* lozimligini taklif etgan. Bu voyaga yetmagan mahkumlarning mamlakatimiz qonunchiligida belgilangan huquqlarini yanada kengayishiga xizmat qilishi ta'kidlangan.

Ishda dissertant tomonidan ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan voyaga yetmagan mahkumlarni tarbiyalash maqsadida ularga qo'llaniladigan axloq tuzatish vositalari (jazoni ijro etish va o'tashning belgilangan tartibi (rejimi), ijtimoiy-foydali mehnat, tarbiyaviy ish, jamoatchilik ta'siri, umumiy va kasb-hunar ta'limi hamda kasbiy tayyorgarlik)ning o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan.

Xususan, tadqiqotchi tomonidan mahkumlarni axloqan tuzatish jarayoni, ayniqsa voyaga yetmagan mahkumlar bilan ishlash murakkab jarayon hisoblanishini e'tiborga olish lozimligi, chunki, jazo o'tayotgan voyaga yetmagan shaxslarning aksariyat qismida jamiyatda o'rnatilgan tartib-qoidalarni hurmat qilmaslik va qabul qilmaslik, atrofdagi insonlarni mensimaslik, nizoli holatlarga moyillik kabi xislatlar xos ekanligi ta'kidlangan.

Shu bilan birga, dissertatsiyada tarbiya koloniyalarida mahkumlarni axloqan tuzatish jarayonining murakkabligini yana bir sababi bu ularda intizomlilikni shakllantirish, ularning ma'naviy bilimlarini oshirish, shuningdek, mahkumlarda javobgarlik ya'ni mas'uliyat hissini uyg'otish, bo'sh vaqtlaridan to'g'ri va unumli foydalanishga o'rgatish, turg'un ijobiy ko'nikmalar hamda jamiyat manfaatlarini ustun qo'yish ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq. Shuning uchun ham, tarbiya koloniyalaridagi tarbiyaviy ishlarda asosiy e'tibor voyaga yetmagan mahkumni ma'naviy, mehnat hamda huquqiy tarbiyalashga qaratilishi lozimligi nazarda tutilgan.

Muallif tarbiya koloniyalaridagi tarbiyaviy ta'sir etish obyekti hisoblangan mahkumlar alohida toifadagi shaxs bo'lganligi sababli, birinchidan, ularga nisbatan qo'llaniladigan tarbiya vositalari, usullari, shakllarining mazmuni boshqa jazoni ijro etish muassasalaridagi tarbiyaning vosita, usul va shakllaridan farq qiladi, ikkinchidan, tarbiyaviy ishlar va ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijrosi hamohang ravishda tashkil etishni taqozo etadi, deb fikr bildirgan.

Dissertant tomonidan tarbiya koloniyalarida mahkumlarni axloqan tuzatishda asosiy e'tibor ta'limga qaratilishi lozimligiga urg'u beriladi. RAND Corporation tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda ham har qanday turdagi ta'lim retsidiiv jinoyatni 43 foizga kamaytirishi aniqlangan. Tadqiqotchi AQSh, Germaniya, Shvetsariya, Norvegiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Belorussiya, Rossiya, Ukraina kabi davlatlarning mahkumlarga beriladigan ta'lim tizimini tahlil etish natijasida mamlakatimizda ham jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarni ta'lim olishi uchun barcha moddiy-texnik sharoitlarni yaxshilash lozimligi, shuningdek *tarbiya koloniyalarida jazo o'tayotgan hamda kasb-hunarga o'qiyotgan mahkumlarga beriladigan sertifikatlarda ularni jazo muddatini o'tash davomida olinganligi to'g'risidagi ma'lumotni nazarda tutish maqsadga muvofiq emasligini ta'kidlangan.*

Bu jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan voyaga yetmagan mahkumni ishga joylashish jarayonida muayyan muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligi, xususan, ushbu holat ish beruvchining “jinoyat sodir etgan shaxs”ni ishga olish istagidan qaytarish ehtimolini keltirib chiqarishi mumkin degan xulosaga kelingan.

Ishda tarbiya koloniyasida jazo muddatini o‘tayotgan tarbiyalanuvchilar uchun “V” toifasi bo‘yicha xaydovchilik kurslari tashkil etilganligi, bugungi kunga qadar voyaga yetmagan mahkumlardan 25 nafari “V” toifasi bo‘yicha haydovchilik guvohnomalariga ega bo‘lganligi, Kambag‘allikni qisqartirish, bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda ishlab chiqilgan 6 ta ixtisoslashtirilgan yo‘nalish bo‘yicha kasb-hunar kurslarida 2021-yilda 115 ta, 2022-yilda 138 ta, 2023-yilda 104 ta, 2024-yilda esa 65 nafar voyaga yetmagan mahkumlar o‘qib, sertifikatga ega bo‘lganligi qayd etilgan.

Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan xorijiy davlatlarning mahkumlarni rag‘batlantirish borasidagi tajribasini tahlil qilish natijasida amaldagi qonunchilikka tarbiya koloniyalarida mahkumlarni kitob o‘qish, ta‘lim olish va xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini orttirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining “Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari”ni quyidagi tahrirdagi **57¹-band** bilan to‘ldirish taklif etiladi.

Tarbiya koloniyasida jazoni o‘tash davomida oliy ta‘lim muassasalariga kirish imtixonlariga yaxshi tayyorlangan va davlat granti asosida oliy ta‘lim muassasasiga o‘qishga kirgan, shuningdek xorijiy tillarni mukammal o‘rganib, Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo‘yicha milliy sertifikatni olgan mahkumlar jazodan muddatidan ilgari ozod qilinishi mumkin.

Ishda O‘zbekiston Respublikasi JIKning 88-96-moddalarida ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tayotgan voyaga yetmaganlarni mehnatga jalb etishning umumiy qoidalari belgilangan bo‘lsada, mazkur toifadagi shaxslar yoshi va sog‘lig‘i holati e‘tiborga olinib, ixtiyoriy mehnatga jalb etilishi, bugungi kunda esa voyaga yetmagan mahkumlar amalda mehnatga jalb etilmasligi, tarbiya koloniyasida ishlab chiqarish obyektlari mavjud emasligi qayd etilgan.

Bugungi kunda ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tayotgan mahkumlar orasida qayta jinoyat sodir etganligi uchun jazoga hukm qilingan voyaga yetmaganlar 23,1 foizni tashkil etishi voyaga yetmagan mahkumlarni axloqan tuzatish va ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashishini ta‘minlash, shuningdek ular tomonidan qayta jinoyat sodir etish holatlarini oldini olishga qaratilgan normalarni takomillashtirish zarurati mavjudligidan dalolat beradi.

Muallif jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarni ozodlikka tayyorlash, ularni jazoni o‘tab chiqqanlaridan so‘ng ijtimoiy hayotga moslashuvini ta‘minlash murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanib, buning asosiy sabablaridan biri sobiq mahkumlar o‘rtasidagi retsdiv jinoyatchilikning ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq ekanligini qayd etgan.

Olib borilgan tadqiqot asosida muallif ***voyaga yetmagan mahkumlarning post-penitensiar adaptatsiyasi*** – *ijtimoiy moslashishning maxsus yo‘nalishi bo‘lib, tarbiya koloniyalaridan ozod etilgan voyaga yetmagan shaxslarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, rehabilitatsiya qilish, ularning huquq va erkinliklarini ta‘minlashning*

huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy-psixologik jihatlaridan iborat kompleks chora-tadbirlar ekanligi haqida xulosaga kelgan.

Tadqiqotchining fikricha, mahkumlarning samarali ijtimoiy adaptatsiyasi va voyaga yetmaganlarning retsivid jinoyatchiligini oldini olishga yordam beradigan usullardan biri bu “penitentsiar ta’til” hamda “yengillashtirilgan saqlash sharoiti” hisoblanib, mazkur davr mobaynida jazoni ijro etish muassasasidan biriktirilgan xodim bilan birgalikda mahkumlar o‘zlari uchun ish izlash, o‘qish joyi bilan qayta aloqa o‘rnatish, yashash joyi topish, jamiyat a‘zolari bilan foydali aloqani o‘rnatish, yaqin qarindoshlari bilan cheklanmagan miqdorda uchrashish, oilaviy masalalar bilan bog‘liq muammolarni hal qilish kabi mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishi lozim.

Bugungi kunda mahkumlarni jazodan ozodlikka tayyorlash jazo muddati tugashiga uzog‘i uch oy qolganda amalga oshirilishi, ushbu muddat juda ham qisqa ekanligi va o‘zining kutilgan samarasini bermasligi sababli muallif Kanada, Norvegiya, Rossiya, Qirg‘iziston kabi ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasi asosida O‘zbekiston Respublikasi JIKga quyidagi mazmundagi 129¹-moddani kiritishni taklif etgan:

“129¹-modda. Tarbiya koloniyalarida mahkumlarni ozod qilishga tayyorlash

Tarbiya koloniyalarida jazo o‘tayotgan ijobiy tavsiflangan mahkumlar jazoni o‘tash muddati tugashiga uzog‘i bilan olti oy qolganda yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o‘tkaziladi. Mazkur muddat davomida mahkumlar fuqarolik kiyimida yurish, cheklanmagan miqdorda telefon orqali so‘zlashuvlarga ega bo‘lish, cheklanmagan miqdorda yaqin qarindoshlari bilan qisqa muddatli va 6 marotaba uzoq muddatli uchrashuvga chiqish, cheklanmagan miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish huquqiga ega.

Yengillashtirilgan saqlash sharoiti davomida mahkumlar psixologlar tomonidan olib boriladigan individual ijtimoiy moslashtirish dasturlarida ishtirok etadi.

Yengillashtirilgan saqlash sharoitida mahkum tomonidan intizomiy javobgarlikka sabab bo‘ladigan xatti-harakat sodir etilsa, u avvalgi saqlash sharoitiga qaytariladi.”

Amaldagi jinoyat-ijroiya qonunchiligiga ushbu mazmundagi normani kiritilishi voyaga yetmagan mahkumlarni jamiyatga qaytish jarayonini osonlashtirish, retsividizmni kamaytirish, oila bilan munosabatlarni yaxshilash va avvalgi fuqarolik qiyofasini tiklashga xizmat qiladi.

Dissertantning ta’kidlashicha, voyaga yetmagan mahkumlarni ozodlikka tayyorlashga qaratilgan chora-tadbirlar nafaqat jazo muddati yakunlanadigan paytda, balki jazoning butun muddati davomida olib borilishi maqsadga muvofiq. Jazoni o‘tash muddati davomida tarbiya koloniyalarida mahkumlarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish jarayonida maxsus metodlardan – mahkumlarning psixologik, huquqiy, ijtimoiy holatlari bilan bog‘liq usullardan foydalanish o‘z samarasini beradi, bunda ma’naviy, huquqiy, jismoniy va mehnat tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir davlat jazoni o‘tab chiqqan voyaga yetmagan mahkumlarga yordam berishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi – moddiy yordam, ijtimoiy-maishiy xizmatlar, tibbiy-statsionar xizmatlar, yuridik maslahat yordami, vaqtincha boshpana berish, reabilitatsiya xizmatlarini tashkil etishi lozim.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosi ijrosini xalqaro va ayrim xorijiy davlatlar tajribasi asosida takomillashtirish”** deb nomlanib, ushbu bobda xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy davlatlarning voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosining ijrosi bilan bog‘liq normalari hamda tajribasi tahlil etilgan.

Dissertantning fikricha, tadqiqot doirasida o‘rganilgan xalqaro standartlarning asosiy qismida voyaga yetgan huquqbuzarlar voyaga yetmasdan jinoyat sodir etganlardan alohida saqlanishi, ularning yoshi va huquqiy maqomiga javob beradigan tartib tatbiq etilishi lozimligi, ozodlikdan mahrum qilingan har bir bola bilan insonparvarlarcha muomala qilish hamda uning yoshidagi shaxs ehtiyojlarini hisobga olgan holda, shuningdek shaxsning ajralmas qadr-qimmatini hurmat qilinishini ta‘minlagan holda o‘z oilasi bilan yozishmalar va uchrashuvlar orqali aloqa bog‘lab turishini ta‘minlashi lozimligi haqidagi normalar belgilanganligini ko‘rish mumkin.

1990-yil 14-dekabrda BMTning “Ozodlikdan mahrum etilgan voyaga yetmaganlarni himoya qilish qoidalari” Rezolyutsiyasi (45/113) voyaga yetmagan shaxsni alohida axloq tuzatish muassasasida ushlab turish lozimligi va ushlab turish har doim oxirgi chora sifatida va zarur bo‘lgan minimal muddatga qo‘llanilishi lozimligini belgilaydi.

Ishda voyaga yetmagan mahkumlarning huquqiy holati belgilangan asosiy xalqaro standartlardan biri 1985-yil 25-noyabrda “Voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishga taalluqli minimal standart qoidalari (“Pekin qoidalari”) ekanligi, mazkur xalqaro qoidalarining 26.1-bandida jazoni ijro etish muassasalaridagi voyaga yetmaganlar bilan tarbiyaviy ishlarning maqsadi ularga jamiyatda ijtimoiy foydali samarali rollarni bajarishiga yordam ko‘rsatishi uchun vasiylik, himoya, ta‘lim va kasbiy tayyorgarlikni ta‘minlash ekanligi belgilanganligi nazarda tutilgan.

Shuningdek, muallif tomonidan 2006-yil 12-yanvardagi “Yevropa qamoqxona qoidalari” to‘g‘risidagi Vazirlar Qo‘mitasi tavsiyalari ham o‘rganilgan bo‘lib, mazkur Qoidalarining 3-qismida voyaga yetmagan mahkumlar uchun muassasalardagi rejim deganda ularning ta‘lim darajasini oshirish, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish, kasbiy tayyorgarlik, tuzatish va ozodlikka tayyorgarlik bilan bog‘liq barcha ta‘lim faoliyati tushunilishi qayd etilgan.

Tadqiqotchi voyaga yetmagan mahkumlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish bilan bog‘liq qoidalar bugungi kunda deyarli barcha Yevropa mamlakatlarining voyaga yetmagan mahkumlar saqlanadigan muassasalarda, bundan tashqari mamlakatimiz jazoni ijro etish muassasalarida ham mavjud ekanligi haqida xulosa qilgan.

Dissertant tomonidan 15 ga yaqin ilg'or xorijiy davlatlarning (Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Finlandiya, Shvetsariya, Italiya, Fransiya, Norvegiya, Rossiya Federatsiyasi, Belorussiya, Ukraina, Qozog'iston, Qirg'iziston) voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish borasidagi tajribasi tahlil etilgan va ijobiy jihatlarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish yuzasidan taklif hamda tavsiyalar berilgan.

Dissertatsiyada xorijiy davlatlarning voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etishdagi qonunchiligi o'rganilishi natijasida mazkur davlatlarda voyaga yetmaganlar saqlanadigan muassasalar alohida nomga egaligi, xususan Buyuk Britaniyada "borstal axloq tuzatish muassasalari", aksariyat MDH mamlakatlarida esa "tarbiya koloniyalari" deb nomlanishiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, muallif tomonidan voyaga yetmaganlar saqlanadigan muassasalar qoshida ota-onalar qo'mitalari va vasiylik kengashlarining mavjudligi (Germaniya, Rossiya, Qirg'iziston), mahkumlarni jazoni o'tash davri turli xil saqlash sharoitlariga bo'linganligi (Buyuk Britaniya, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston), voyaga yetmaganlarga nisbatan jazoni o'tash tartibi va shartlari boshqa davlatlarga nisbatan liberalroq ekanligi (Shvetsariya, Finlyandiya, Norvegiya), voyaga yetmaganlarni intizomy javobgarlikka tortish uchun sabab bo'ladigan holatlarning JIKda alohida normada belgilanganligi (Rossiya, Qozog'iston, Ukraina), mahkumlarni ijtimoiy moslashtirish bo'yicha alohida maxsus dasturlarning mavjudligi (Qirg'iziston, Ukraina, AQSh, Germaniya) e'tiborga loyiq ekanligi ta'kidlangan.

Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan bugungi zamonaviy penitensiar muassasalarda mahkumlarga psixologik xizmat ko'rsatishda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanilayotganligi, eng samarali sun'iy intellekt usullaridan biri bu virtual psixoterapevtlar va chat-botlar ekanligi, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishning ijobiy amaliyoti natijasida ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan mahkumlarni axloqan tuzatish va ularga psixologik yordam ko'rsatish samaradorligini oshirish maqsadida jazoni ijro etish faoliyatida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi.

Dissertant xorijiy davlatlarning voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish bilan bog'liq tajribasini tahlil etish natijasida zamonaviy Yevropada voyaga yetmagan mahkumlar uchun muassasalarda ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni ijro etish va o'tashni huquqiy tartibga solishning ikkita asosiy modelini ajratish mumkinligi haqida xulosa qilgan. Xususan, muallifning fikriga ko'ra, G'arbiy Yevropa mamlakatlari Liberal model bilan ajralib turadi, bu yerda rejimning faqat eng muhim masalalari normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi, qolganlari uchun esa muassasalarning mahalliy hujjatlari chiqariladi. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida, ayniqsa postsovet davlatlari hududida, voyaga yetmagan mahkumlarga nisbatan jazoni ijro etish va o'tashning qat'iy huquqiy rejimi ustunlik qiladi, bu maksimal me'yoriy-huquqiy tartibga solishni nazarda tutadi.

XULOSA

Voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etishni takomillashtirish masalalarini tahlil qilish, bu boradagi xorijiy amaliyot va tajribani o'rgangan holda quyidagi xulosalarga kelindi hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Jahonda voyaga yetmaganlar uchun alohida jazoni ijro etish muassasalari tashkil etilishining rivojlanish tarixi quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

Qadimgi antik davrdan XVIII asrgacha – voyaga yetmaganlar o'z ota-onalari bilan birga jazolangan, voyaga yetganlar bilan bitta muassasalarda saqlangan, voyaga yetganlar uchun qo'llaniladigan jinoiy sudlov tizimi asosida jazolangan.

XVIII asrdan XIX asr o'rtalarigacha – voyaga yetmaganlar uchun 1825-yilda Nyu-York shahrida dastlabki alohida jazoni ijro etish muassasasi sifatida voyaga yetmagan huquqbuzarlarni rehabilitatsiya qilish uchun “Boshpana uyi” tashkil etilgan. Biroq, voyaga yetmaganlarni sodir etilgan qilmishining ijtimoiy xavfliligiga qarab voyaga yetganlar saqlanadigan muassasalarga joylashtirish tartibi davom etgan.

XIX asr o'rtalaridan XX asr o'rtalarigacha – ko'plab davlatlarda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyat ishlarini ko'rish uchun alohida sud tashkil etilgan va voyaga yetmaganlarni alohida axloq tuzatish muassasalarida saqlash lozimligi haqida g'oyalar ilgari surila boshlangan.

XX asr o'rtalaridan hozirgi davrga qadar – BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan konvensiyalar ishlab chiqilishi natijasida voyaga yetmagan huquqbuzarlarni institutsionalizatsiya qilish, ularni voyaga yetgan jinoyatchilardan ajratish, voyaga yetganlar uchun mo'ljallangan axloq tuzatish muassasalarida jazo o'tash tartibini bekor qilish tartib va qoidalari ishlab chiqilgan. Ko'plab davlatlarda voyaga yetmaganlar uchun alohida jazoni ijro etish muassasalari tashkil etilgan.

2. Voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish tushunchasining quyidagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi:

Voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish deganda mazkur jazoni ijro etish jarayoni va tamoyillari, tartibi va shartlarini, jazoni ijro etish rejimini, jazo o'tayotgan voyaga yetmagan shaxslarni tarbiyalash maqsadida qo'llaniladigan usul va vositalarni, tarbiya koloniyalari faoliyati, mahkumlarni axloqan tuzatishda davlat hokimiyati va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, korxonalar, muassasa, tashkilotlarning, jamoat birlashmalari va fuqarolarning ishtiroki tushuniladi.

3. *Voyaga yetmagan mahkumlarning huquqiy holati* – voyaga yetmagan mahkumlarning ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash davrida ega bo'ladigan xalqaro, konstitutsiyaviy, fuqarolik va maxsus huquqlari hamda majburiyatlarining yig'indisidir degan xulosaga kelindi.

4. “Voyaga yetmagan mahkumlarning post-penitensiar adaptatsiyasi – ijtimoiy moslashishning maxsus yo‘nalishi bo‘lib, tarbiya koloniyalaridan ozod etilgan voyaga yetmagan shaxslarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, rehabilitatsiya qilish, ularning huquq va erkinliklarini ta‘minlashning huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy-psixologik jihatlaridan iborat kompleks chora-tadbirlar”dir.

5. Tarbiya koloniyalarida belgilangan rejim talablari voyaga yetmagan mahkumning yoshi, jinsi, sog‘lig‘i holati, rivojlanish darajasi, xulq-atvori, jinoyat sodir etishdagi psixologik holatlari, mahkum shaxsiga xos individual xususiyatlarni alohida e‘tiborga olgan holda belgilanishi lozim.

6. Tarbiya koloniyalarida ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tayotgan voyaga yetmagan mahkumlarning **kriminologik portreti** yaratilib, voyaga yetmagan mahkum shaxsi xususiyatlari yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

birinchidan, tarbiya koloniyasida jazo o‘tayotgan voyaga yetmagan mahkumlarning 15,4 foizini 14 yoshdan 16 yoshgacha, 65,7 foizini 16 yoshdan 18 yoshgacha, 18,9 foizini 18 yoshdan 21 yoshgacha bo‘lgan shaxslar tashkil etmoqda. Mahkumlarning ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan 52 foizi – ishchi, 28 foizi – ishsiz, 20 foizi – ziyoli oiladan.

ikkinchidan, 76,9 foizi birinchi marta sudlanganlar, 23,1 foizi qayta sudlanganlardir.

uchinchidan, voyaga yetmagan mahkumlarning har ikkitadan bittasi (49,7 foiz) Samarqand, Toshkent va Farg‘ona viloyatlari hisobiga to‘g‘ri keladi.

to‘rtinchidan, tarbiya koloniyasida jazo o‘tayotgan mahkumlar JK 119-modda (22,4 foiz), 169-modda (18,9 foiz), 104-modda (11,2 foiz), 267-modda (10,5 foiz), 97-modda (9,1 foiz), 118-modda (7,7 foiz), 166-modda (7,0 foiz), 164-modda (2,8 foiz), 168-modda (2,1 foiz), 128-modda (2,1 foiz), JKning boshqa moddalarida (6,3 foiz) nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etganlikda aybdor deb topilib, ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinganlardir.

beshinchidan, tarbiya koloniyasida jazo o‘tayotgan mahkumlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning aksariyati moddiy manfaat olish kabi psixologik motiv asosida sodir etilgan.

III. Qonunchilikni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar

1. O‘zbekiston Respublikasi JIKning **9-moddasida** belgilangan mahkumlarning asosiy huquqlari doirasiga **ta‘lim olish huquqi**ni kiritish taklif etiladi.

2. Xalqaro standartlar tahlilidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi JIKga quyidagi mazmundagi **17¹-moddani** kiritish taklif etiladi:

“17¹-modda. Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llashning barvaqt oldini olish bo‘yicha nazorat.

Mahkumlarga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llashning oldini olish uchun maqsadida mahkumlar saqlanadigan joylarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman), O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman), Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi

tomonidan monitoring tashriflari orqali qiynoqning oldini olish bo'yicha nazorat amalga oshiriladi".

3. O'zbekiston Respublikasi JIKning **77-moddasi** quyidagi mazmundagi **3-qism bilan to'ldirilishi** maqsadga muvofiq:

Tarbiya koloniyalarida jazo o'tayotgan mahkumlarning telefon orqali so'zlashuvlari muassasa ma'muriyati nazorati ostida o'tkaziladi hamda ularning haqi respublika budjeti hisobidan amalga oshiriladi.

4. O'zbekiston Respublikasi JIKning **100-moddasi uchinchi qismini** quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

Mahkumlarning oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim olishiga yo'l qo'yilmaydi, manzil-koloniyalardagi mahkumlar bundan mustasno bo'lib, ular o'quv yurtlarining sirtqi bo'limlarida ta'lim olishlari mumkin. Tarbiya koloniyalarida jazo o'tayotgan mahkumlar masofaviy shaklda oliy ta'lim olishlari mumkin.

5. O'zbekiston Respublikasi JIKning **127-moddasi 2-qismini** quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

Tarbiya koloniyasining hibsxonasiga kiritib qo'yilgan mahkumlarning sayr qilish muddati sutkasiga to'rt soat qilib belgilanadi.

6. O'zbekiston Respublikasi JIKning **128-moddasini** quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

Jazoni o'tash davrida o'n sakkiz yoshga to'lgan mahkumlar sog'lig'ida jiddiy muammosi bo'lsa, ta'lim muassasasida o'qishni davom ettirishi lozim bo'lsa, rivojlanishdan orqada qolgan bo'lsa, nogironligi mavjud bo'lsa, jazoni o'tash muddati tugashiga 1 yildan kam muddat qolgan bo'lsa hamda ijobiy tavsiflangan taqdirda yigirma bir yoshga to'lgunga qadar tarbiya koloniyasida qoldirilishi mumkin.

Mahkumlarni tarbiya koloniyalarida qoldirish muassasa boshlig'i, prokuror, Bola huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman), mahkumning ota-onasi yoki advokati iltimosnomasiga asosan sud tomonidan amalga oshiriladi.

7. O'zbekiston Respublikasi JIKning **129-moddasi 2-qismini** quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

Jazo o'tashni davom ettirish uchun mahkumlarni jazoni ijro etish koloniyasiga o'tkazish masalalari sud tomonidan mahkumning ota-onasi yoki advokatining iltimosnomasi yoxud tarbiya koloniyasi ma'muriyatining Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya bilan kelishilgan taqdimnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 537-moddasida nazarda tutilgan tartibda hal etiladi.

8. O'zbekiston Respublikasi JIKga quyidagi mazmundagi 129¹-moddani kiritish taklif etiladi:

"129¹-modda. Tarbiya koloniyalarida mahkumlarni ozod qilishga tayyorlash

Tarbiya koloniyalarida jazo o'tayotgan ijobiy tavsiflangan mahkumlar jazoni o'tash muddati tugashiga uzog'i bilan olti oy qolganda yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkaziladi. Mazkur muddat davomida mahkumlar fuqarolik kiyimida yurish, cheklanmagan miqdorda telefon orqali so'zlashuvlarga ega bo'lish, cheklanmagan miqdorda yaqin qarindoshlari bilan qisqa muddatli va 6 marotaba

uzoq muddatli uchrashuvga chiqish, cheklanmagan miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish huquqiga ega.

Yengillashtirilgan saqlash sharoiti davomida mahkumlar psixologlar tomonidan olib boriladigan individual ijtimoiy moslashtirish dasturlarida ishtirok etadi.

Yengillashtirilgan saqlash sharoitida mahkum tomonidan intizomiy javobgarlikka sabab bo'ladigan xatti-harakat sodir etilsa, u avvalgi saqlash sharoitiga qaytariladi."

9. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining "Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari"ni quyidagi tahrirdagi **57¹-band** bilan to'ldirish taklif etiladi.

"57. Tarbiya koloniyasida jazoni o'tash davomida oliy ta'lim muassasalariga kirish imtixonlariga yaxshi tayyorlangan va davlat granti asosida oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirgan, shuningdek xorijiy tillarni mukammal o'rganib, Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha milliy sertifikatni olgan mahkumlar jazodan muddatidan ilgari ozod qilinishi mumkin."

10. Tarbiya koloniyalarida jazo o'tayotgan hamda kasb-hunarga o'qiyotgan mahkumlarga beriladigan sertifikatlarda ularni *jazo muddatini o'tash davomida olinganligi* yoki *ularning jazoni o'tash joyida olinganligi* to'g'risidagi har qanday ma'lumotni nazarda tutmaslik maqsadga muvofiq.

11. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi *Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan* voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish, ularning sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish, bartaraf etish, voyaga yetmagan jinoyatchilarning xulqini tuzatish, jinoyatdan jabrlangan, shuningdek jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan voyaga yetmaganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish maqsadida bolalar sohasida faoliyat olib boruvchi fuqarolik jamiyati institutlariga davlat ijtimoiy buyurtmalari va davlat grantlari ajratish tavsiya etiladi.

III. Jazoni ijro etish faoliyatini yaxshilashga doir takliflar

1. Tarbiya koloniyasining har bir xodimi voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'yicha kasbiy va psixologik kompetensiyalar bo'yicha maxsus malaka tayyorgarligidan o'tishi lozim. Ushbu ixtisoslashtirilgan ta'lim xalqaro konvensiyalar va standartlar hamda milliy qonunchilik tamoyillariga asoslanishi maqsadga muvofiq.

2. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan mahkumlarni axloqan tuzatish va ularga psixologik yordam ko'rsatish samaradorligini oshirish maqsadida jazoni ijro etish faoliyatida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda mahkumlar uchun psixologik yordam va maslahatlarni taqdim etadigan *texnologiyalar – virtual psixoterapevtlar* yoki *chat-botlar tizimini joriy etish* taklif etiladi.

3. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish tizimining samaradorligini baholash va doimiy ravishda takomillashtirish uchun *jamoatchilik vakillaridan iborat monitoring tadbirlarini* tizimli yo'lga qo'yish, jazoni ijro etish faoliyatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ko'lamini oshirish tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSC.07/13.05.2020.YU22.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЮРИДИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

КУЛТУРАЕВА САРВИНОЗ САДРИДДИН КИЗИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИСПОЛНЕНИЯ НАКАЗАНИЯ В ВИДЕ
ЛИШЕНИЯ СВОБОДЫ В ОТНОШЕНИИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ**

12.00.08 – Уголовное право. Уголовное-исполнительное право

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по юридическим наукам

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан зарегистрирована под номером B2022.4.PhD/Yu888.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном юридическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, английском, русском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.tsul.uz) и Информационно-образовательном портале «Зиёнёт» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	Салаев Нодирбек Сапарбаевич доктор юридических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Уразалиев Мурадбек Караевич доктор юридических наук, профессор Кушбаков Дильшат Мусурманкулович доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент
Ведущая организация:	Каракалпакский государственный университет имени Бердака

Защита диссертации состоится 3 апреля 2025 года в 16:00 на заседании Научного совета DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 при Ташкентском государственном юридическом университете (Адрес: 100047, г. Ташкент, улица Сайилгох, 35. Тел.: +99871 233-66-36; факс: +99871 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного юридического университета (зарегистрировано за №1378). (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 13. Тел.: +99871 233-66-36)

Автореферат диссертации разослан 20 марта 2025 года.
(протокол реестра № 44 от 20 марта 2025 года).

А.А.Отажонов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
юридических наук (DS), профессор

И.Б.Джураев
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
юридических наук (DS), профессор

Д.Б.Базарова
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых
степеней, доктор юридических наук (DS),
профессор

Введение (аннотация к диссертации доктора философии (PhD)).

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире наблюдается рост числа наказаний в виде лишения свободы, назначаемых в отношении несовершеннолетних. В частности, согласно данным ООН, на сегодняшний день в мире из каждых 100 тысяч детей 28 отбывают наказание в виде лишения свободы. В Северной Америке показатель лишения свободы несовершеннолетних является самым высоким, и из каждых 100 тысяч детей 72 отбывают данное наказание¹. В целом, ежегодно в мире арестовываются более одного миллиона несовершеннолетних². Причиной этого является отсутствие комплексного подхода международных организаций к предотвращению преступности среди несовершеннолетних, а также несоответствие условий отбывания наказания в пенитенциарных учреждениях возрасту, физиологическому и психологическому состоянию несовершеннолетних. Это требует разработки современных международных стандартов и общих направлений реформирования законодательства в сфере исполнения наказания, направленных на снижение роли и участия несовершеннолетних в преступной деятельности, повышение эффективности применения методов исправления, а также на реформирование деятельности пенитенциарных учреждений, в которых содержатся несовершеннолетние заключенные.

В мире уделяется особое внимание научным исследованиям, направленным на изучение проблем исполнения наказания в виде лишения свободы, назначаемого в отношении несовершеннолетних. В качестве важнейших мер по предупреждению преступности среди несовершеннолетних достигнуты определённые результаты в улучшении условий отбывания наказания для несовершеннолетних, применении эффективных методов исправления, расширении прав несовершеннолетних заключённых, а также в разработке механизмов социальной и психологической адаптации (приспособления). Тем не менее, с учётом современных условий, на глобальном уровне необходимо расширить масштаб исследований, комплексно изучающих теоретические, практические и правовые аспекты исполнения наказания в виде лишения свободы для несовершеннолетних, а также выявить проблемы в этой сфере и предложить научно обоснованные решения.

В республике достигнуты определённые результаты в создании правовых основ исполнения наказания в виде лишения свободы, назначаемого несовершеннолетним. В частности, созданы правовые основы для отбывания наказания несовершеннолетними в отдельных учреждениях исполнения наказания – воспитательных колониях, а также для неограниченного количества встреч несовершеннолетних заключённых с их родителями или лицами, их заменяющими. Кроме того, в Концепции совершенствования уголовно-исполнительного законодательства Республики

¹ <https://data.unicef.org/topic/child-protection/justice-for-children/>

² <https://data.unicef.org/resources/children-in-detention-report/>

Узбекистан на 2019–2021 годы³ одной из основных задач в области исполнения наказаний было развитие системы обеспечения образования осуждённых, в первую очередь несовершеннолетних и молодежи, организации их профессиональной подготовки и трудовой занятости, а также обеспечение их социальной адаптации. Эти задачи требуют разработки эффективных методов исполнения наказания в виде лишения свободы для несовершеннолетних и исследования программ, направленных на успешную социальную адаптацию несовершеннолетних осуждённых.

